

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALALAR NING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MAQOLALARIDA QUR'ON OYATLARI VA HADISLARNING OO'LLANILISHI

Qimmatoy Abdumatalibova

O'zJOKU, Xalqaro jurnalistika yo'nalishi 1-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy publististik faoliyatidagi ijmon-e'tiqodga oid maqolalari va ularning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etildi hamda maqolalardagi Our'on oyatlari va hadislarning keltirilishi, ularning uslubiy xususiyatlarini yoritildi.

Kalit so'zlar: Our'on, sura, ovat, hadis, jadidchilik, muftiv.

Behbudiyning “umummiliy g‘oya”si bor edi va uning targ‘iboti uchun milliy matbuot kerak edi. Jadidlar ana shunday matbuotga asos soldi. Jadid matbuoti tom ma’noda fikr almashish, ilg‘or g‘oya va fikrlarni targ‘ib qilish, bahslashish maydoniga aylandi. Jadid matbuoti demokratik qadriyatlarni o‘zida aks ettirgan, fikrlar qarama-qarshiliginini ko‘tara oladigan, ijtimoiy-siyosiy mavzularda tanqid qila oladigan matbuot edi. Birgina Behbudiyning “Oyna” jurnali ma’rifat va madaniyat tarqatish yo‘lida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir turli maqolalar e’lon qildi, bu yo‘nalishda keng bahslar uchun minbar vazifasini o‘tadi. Behbudiy milliy g‘oyasining yana bir targ‘ibot quroli bu – adabiyot edi. Jadidlar buyuk Navoiy, Fuzuliy, Sa’diyni chuqur bilgani holda adabiyotni xalqqa, ommaga yaqinlashtirdi, uning tilida yozishga harakat qildi va bu ishni uddaladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas” degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod deb bildi. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma’rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarni chuqr egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladi. Buni o‘z asarlarida, yozmishlarida ochiq-oydin ko’rsatdi.

Tarixdan ma'lumki, Hoji Muinning so'zlaridan Mahmudxo'ja Behbudiyning Samarqanddagi ma'rifatparvar sulolalardan biriga mansub bo'lgani ayon bo'ladi. Yana Hoji Muinning so'zlaridan shu narsa aniq bo'ladiki, Behbudiyning bobosi Niyozxo'ja Urganjiy Samarqandga XVIII asr o'rtalarida ko'chib kelgan. Behbudiyning bobosi bilan bir davrda Samarqandga ko'chib kelgan qorilar zimmasiga mahalliy yoshlarni "ulumi arabiya va diniya"dan xabardor etish vazifasi tushgan. Binobarin, Mahmudxo'ja Behbudiylar XX asr boshlarida Turkistondagi milliy uyg'onish harakatiga tamal toshini qo'yish bilan ota-bobolari boshlagan ma'rifatparvarlik ishlarini yangi tarixiy davr sharoitida davom ettirgan [7. B 25].

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ma’rifat uchun birgina maktab, teatr yoki shu kabilarning o’zi kifoya qimaydi. Zamona va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq kerak, millat va Vatanning ahvoldidan ogoh bo’lish kerak. Shuningdek, uni to’g’ri yo’lga chorlamoq ham zarurdir.

Behbudiylar amalga oshirish uchun bor bilim va mahoratini sarf etdi. Ma’lumki, xalqimiz e’tiqodi islom, qadriyatlarini islomdir. Behbudiyning o’zi chuqur diniy bilimlar egasi – muftiy bo’la turib, o’z faoliyatida buni, albatta, inobatga olgan. Har bir maqolasida islom dini ahkomlari haqida ochiq-oydin so’z yuritib, omma fe’li va din qoidalarining nechog’lik bir-biridan farq qilayotganligi, ta’lim va tarbiyada islom qonunlariga amal qilinishi darkorligi va agar bunday bo’lmagan taqdirda millatning tanazzul etishi haqida fikr yuritadi. Islom dinining taraqqiyoti va uning ertangi kuni uchun qayg’uradi. Matbuotdagi chiqishlarida Qur’on va hadislarni keng qo’llaydi. Tabiiyki, bu bildirilayotgan fikrning realligini hamda ta’sir kuchini oshirad. E’tiborli jihat shundaki, Behbudiylar o’z maqolalarida ulardan o’rinli va mohirona foydalana olganligidir. Adibning quyidagi “A’molimiz yoinki murodimiz” maqolasiga diqqat qaratsak [1. B 157]:

“Lo takulu’ amvolil yatima. Kulu’ va ishrabu va lo tasrafu”, qanda qoldi? ...Ey musulmonlar, bu oyatu mas’alai shar’ig‘a kim amal qilur? Va muni xaloyiqg‘a kim bildurar? ... Bir mahallada ahli savod yigirmadan bir yo‘q. Imoni islamni dalillari ila bilaturg‘onlarni nari qo‘yduk. Erta qozilar barham bo‘lsa, zamoncha qozi bo‘laturg‘on birgina kishi butun o‘n milyo ‘n Turkistonda yo‘q... Yo‘q, yana yo‘q.”

Behbudiylar maqolasida: “Endi a’molimizg‘a diqqat qilmoq kerak. Aksar xalqimizni a’moli shulki, ishlasa va foyda qilsa. Shoyadki, o‘g‘il va qizini to‘y qilsa va ham qanday! O‘z qatorindagi odamlarni qilgan to‘yidan ziyodaroq!”, – deya xalq orasidagi befoyda odatlarga jon kuydiradi. Shu fikrlarni aytar ekan, bu fikr ta’sirini oshirmoq uchun Qur’oni Karimning A’rof surasi 31-oyatini keltiradi. Oyat tafsirida aytiladiki: Yenglar, ichinglar, ya’ni Alloh taolo sizga rizq qilib bergen pok narsalardan, va bunda isrof qilmanglar, – dedi. U isrof qiluvchilarni yoqtirmaydi. Isrof Alloh tomonidan yomon ko’riladi va u inson tanasiga va uning rizqiga shunchalik zarar keltiradiki, vaziyat uni qarzini to’lashga qodir bo’lmasligigacha olib keladi (Qur’oni Karim tarjima-tafsirlari Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Tafsiri Hilol” asaridan olindi). Ushbu oyatning qo’llanilishi maqolada keltirilgan mavzuning aynan o’ziga mos kelib, natija va oqibat ham shu oyatning o’zidayoq keltirilganligi berilayotgan fikrning to’la tugalligini keltirib chiqaradi. Bu bilan adib omma orasidagi isrofgarchilik, foydasiz va o’rinsiz sarf-xarajat, zararga olib boruvchi atvorning islomda qanday qoralanganligi, xalqining bu odatlari nafaqat dunyosi, dini uchun ham yaxshilik keltirmasligi ochiqlanadi.

**“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID
MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Yana bir maqolasi “Bizni kemirguvchi illatlar”da yuqoridagi fikrni davom ettiradi [1. B 189]: “*jonxarosh, bevoya, xonavayron va g‘arib etguvchi bir dard, biz – turkistoniyarlari shahri va qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg‘acha istilo etib, butun tirikligimizg‘a sorilgon va bizni inqirozg‘a va tahlikag‘a va jahannamg‘a yumalataturgon to‘y, azo ismindagi ikki qattol dushmani derman*”. Bu fikrlarni quvvatlash uchun Kalomullohning Baqara surasi 195-oyatini keltiradi: “*Atomizdan mehribon Tangrimiz jalla va a’lo Qur’oni karimda «Lo talaqqu bi yadikum ala tahlikkatih»*, ya’ni o‘z qo‘llaringiz ila o‘zingizni tahlikaga otmangiz, der. *Biz bo‘lsa, badbaxtona va Xudoning amrig‘a bo‘yun qo‘ymasdan kofirona bir suratda to‘y va azo degan, yo‘q bo‘lushimizg‘a sabab bo‘lgan odatlarga boru yo‘qimizni sarf va isrof etarmiz*”

Ushbu oyat quyidagicha tafsir qilinadi **وَلَا تُلْفُوا بِأَيْدِيكُمْ إِلَى التَّهْلِكَةِ**: Ushbu jumlada bir necha ma’no bor. Biri: Allohning yo‘lida nafaqa qilmay, o‘zingizni halokatga duchor qilmang. Ya’ni, baxilligingiz halokatga sabab bo‘lmasin, – degani. Yana biri: o‘zingizni o‘zingiz o‘ldirmang. Bir kishi o‘zining o‘limiga o‘zi sabab bo‘lsa, o‘zini o‘zi o‘ldirdi, deyiladi. Shunga o‘xhash bo‘lmasin degani. Imom Olusiy, ushbu oyatdan o‘limga sabab bo‘ladigan narsaga bormaslik chiqadi, deganlar. Oyatning oxirida jihod va nafaqaga bog‘lanib qolmasdan ehson darajasiga ko‘tarilishga amr bo‘ladi. Ibn Abbos aytdilar: {Va o‘z qo‘llaringiz bilan halok bo‘lmanglar} U zot: “Qiyomat insonning Alloh yo‘lida o‘ldirilishi emas, balki Alloh yo‘lida nafaqani to‘xtatib qolishidir”, dedilar. Oyat tafsiri Behbudiy maqolasida muhokama qilinayotgan mavzuga to‘laqonli mos tushadi, maqola davomida keltirilgan har bir fikrga hujjat vazifasini o’taydi.

“*Ismimizni bilmaymiz! Nima uchun? Bizg‘a o‘rgatmabdurlar. Masalan, ismimiz Abdulsamad ekan, «Absamat», hatto, qishloqlarda «Apsat» derlar. (Afу buyurulsun, adabdan xorij bo‘lsa-da, adabg‘a da’vat etar.) Oti Yodgor ekan — «Jodigor», Lutfullo ekan — «Nutfullo» ataladur. (Astag‘furullo!) ... ”* adibning “Jaholat dardlaridan” maqolasi ana shunday achinish bilan boshlanadi [1. B 165]. Ushbu maqoladan ko‘zlangan muddao faqatgina ilmsizlik oqibatlarinigina emas, balki insonning naqadar buyukligi va uning shunga yarasha ismga ega bo‘lishi shartligi haqida fikr yuritadi. Sababi, Alloh taolo O‘zining Kalomi majidida aytadi: “Albatta Biz insonni eng go‘zal shaklu shamoilda yaratdik” (Tiyn 4-oyat). Yana bir boshqa oyatda shunday deydi: “Albatta Biz Odam bolalarini aziz va mukarram qildik va ularni quruqlik va dengizda (ot-ulov va kemalarga) chiqarib qo‘ydik hamda ularga halol-pok narsalardan rizqu ro‘z berdik va O‘zimiz yaratgan juda ko‘p jonzotlardan afzal qilib qo‘ydik” (Isro 70-oyat). Alloh taolo ko‘plab turdagи maxluqotlarini yaratib, ular ichida faqat inson zotinigina mukarram – hurmatli, e’zozli qildi. Shuningdek, xilqat jihatidan ham inson mavjudot va

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

maxluqotlarning eng go’zali va chiroylisidir. Shunday ekan, kishining badani va tashqi ko’rinishi go’zal bo’lishi bilan birga, uning xulqi, odobi va ismi ham chiroyli, ko’rkam va ma’nodor bo’lishi lozim. Sahih hadislarning birida Payg’ambarimiz sollallohu alayhi va sallam: “Albatta Alloh Go’zaldir va go’zallikni yaxshi ko’radi”, deganlar. Islomda har bir narsa go’zal va ozoda bo’lishi, agar biron ish bajarilsa, u mukammal tarzda amalga oshirilishi targ’ib qilinadi. Farzand dunyoga kelgach, unga chiroyli ism qo’yish otaning eng birinchi vazifalaridandir. Zero, ism kishi hayoti davomida unga har jihatdan ta’sir qilishi bor haqiqat. Bu narsa tarixdan, xususan Rasululloh sollallohu alayhi va sallam va sahobalar tarixidan ma’lum va mashhurdir. Masalan, Hudaybiyada Nabiy sollallohu alayhi va sallam Sahl ibn Amrning kelayotganini ko’rib: “Alloh ishingizni yengillashtiradiganga o’xshaydi”, deganlari shunga dalolat qiladi. Yana bir muborak hadisda; Abu Dardo roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qiladi: “Albatta sizlar Qiyomat kuni o’z ismlaringiz va otalaringiz ismi bilan chaqirilasizlar. Bas (shunday ekan), ismlaringizni chiroyli qilinglar!” (Abu Dovud, Imom Ahmad, Dorimiy, Ibn Hibbon “Sahih”da, Bayhaqiy “Shu’abul iymon”da rivoyat qilgan). Ushbu hadisda bandalar Qiyomat kunida o’z ismlari va otalari ismi bilan chaqirilishi ta’kidlanib, ularni chiroyli va ma’nodor ismlar qo’yishga targ’ib qilinmoqda. Kishini otasi ismi bilan chaqirish uning yaxshiroq tanilishi va boshqalardan ajralib turishini ta’minlaydi. Biroq, shu davr ilmsizligidan go’zal ismlar “g’alat” ko’rinishga kelganligi, buning xatoligi va uning xunuk jaranglashi hech kimning e’tiboriga kelmaganligidan kuyunadi. Ayniqsa, “Tesha”, “Bolta” kabi ismlarning beo’xshov tarzda keng tarqalgani Behbudiyning bu mavzuga to’xtalishiga majbur qilgan bo’lsa ajab emas. Ommanning ism borasidagi xatolarini ko’rsatadi va yuqorida keltirilgan hadislarga asoslangan holda ismlarni go’zallashtirmoqqa chorlaydi: *“Endi munga iloj, ism qo’yganda, ismni ma’nosini bayon qilinmoq va kayfiyati talaffuzni ota-onag‘a bildurmoq kerak. Va alar bolani o’zig‘a ham bildursunlar va ismlarni yozganda va chaqirganda durust atamoq kerak.”*

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Mahmudxo’ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi: Qosimov B. – T.: Ma’naviyat, 2006 (Mahmudxo’ja, Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to’ldirilgan 2–nashri. Toshkent: Ma’naviyat, 1999,) – 279 b.
2. Aliyev A. Maxmudxo’ja Behbudiy. – T.: “Yozuvchi”, 1994. – 541 b.
3. Alimova D. Rashidova D. Mahmudxo’ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. – T.: “Ma’naviyat”, 1999. – 340 b.
4. Ayniy S. Behbudiy hazratlari to’g’risida xotiralarim // Zarafshon 1922–y. 25–mart
5. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug’ati. – Toshkent.: “Fan”, 1985. – 144 b.

**“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID
MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALALARING YORITILISHI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

6. Ibrahim Yarkin. Mahmud Hoca Behbudi//Hur Turkistan icin istiqbala gazete. 15 ocak. 1975. 97 s.
7. Karimov N. Mahmudxo’ja Behbudi. – T.: “Fan”, 2010. – 210 b.
8. Karimov N. Najot elchisi: M.Behbudiyning 125 yilligiga / N. Karimov // O‘zbekiston adabièti va san’ati. – 2000. – 14 yanv.
9. Karimov N. Behbudiyning so‘nggi safari // Jamiyat va boshqaruv. – 1998. – № 1. – 58-60 b.
10. Shuhrat Rizo. Ma’rifatparvarlikdan ma’rifatparvarlikkacha. – Tafakkur. J – 1995. – N: 74–79-b.
- ص1992. – أنطوان الدجاج. معجم قواعد العربية العالمية. مكتبة لبنان. – بيروت
11. <http://e-tarix.uz/milliyat-insholari/jadid-matbuoti/>
12. <http://www.hozir.org/kirish-abdulla-avloniy.html?page=9>
13. www.gov.uz
14. www.stat.uz
15. www.ziyonet.uz
16. www.tilvaadabiyot.uz
17. <http://www.gldv.org/cms/gldv.php>
18. <http://lexikon.anaman.de/lexikon.htm>